



## MEROS XUQUQINING BAA VA O'ZBEKISTON QONUNCHILIGIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Musayeva Xafiza Xamidovna

Toshkent shahar Chilonzor tumanida Xususiy amaliyot bilan  
shug'ullanuvchi notarius

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13375925>

### ARTICLE INFO

Received: 14<sup>th</sup> August 2024

Accepted: 15<sup>th</sup> August 2024

Published: 18<sup>th</sup> August 2024

### KEYWORDS

### ABSTRACT

*Fuqarolik qonunchiligida meros huquqi, vorislik asoslari, meros tarkibi, merosning ochilishi, merosxo'rlar tizimi va noloyiq merosxo'rlarni merosdan chetlatish asoslari, vasiyat bo'yicha vorislarning umumiy qoidalari, merosdan majburiy hissa olish huquqi, merosni muhofaza qilish, uni boshqarish, merosni egallashning umumiy qoidalari, merosga bo'lgan huquqni tasdiqlash, merosni taqsimlash, merosdan voz kechish huquqlari, hozir bo'lmagan vorislarning huquqlari, meros-mulkka nisbatan imtiyozli huquqqa ega bo'lgan shaxslar, meros mulkidan qilinadigan xarajatlar, egasiz qolgan meros mulkining taqdirini belgilash va merosga oid huquqiy normalar yig'indisidan iboratdir.*

Meros marhumning huquq va majburiyatlari meros qoldiruvchining merosxo'rlariga o'tishini o'zida namoyon etadi. Mulk huquqi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan meros instituti jamiyat rivojlanishining asosidir.

D.I. Meyer: "Yuridik munosabatlarda mulk huquqi zarur va fuqarolik huquqida birinchi o'rinda turadi", deb ta'kidlagan holda, quyidagilarni e'tirof etadi: "insonning narsa ustidan hukmronligi uning ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lib, ularni qondirish istagi esa insonga juda xosdir, chunki u bu uchun xizmat qiladigan vositalarni yuqori qadrlaydi".<sup>1</sup> Meros instituti boshqa fuqarolik-huquqiy institutlar orasida alohida, juda muhim o'rinni egallaydi. Bundan tashqari, meros olish huquqi O'zR Konstitutsiyasi bilan kafolatlangan.

Vorislik huquqi fuqarolar vafot etganda ularning ma'lum bir huquq va majburiyatlarini boshqa shaxslarga o'tish tartibini belgilab beruvchi fuqarolik huquqiy normalar yig'indisidan iboratdir. Shunday qilib, vorislik huquqi - bu meros ochilgan paytda vafot etgan shaxsga tegishli bo'lgan mol-mulk, mulkiy huquq va majburiyatlarni merosxo'rlarga o'tish tartibi va shartlarini belgilab beruvchi huquqiy normalar yig'indisidan iborat.

Demak, vorislik huquqining vazifasi vafot etgan shaxsning mulkiy huquq va majburiyatlarni boshqa shaxslarga, merosxo'rlarga o'tishini qonun bilan belgilangan tartibda ta'minlashdan iborat.

Meros masalalari butun dunyo bo'yicha oldingi asrlardan to xozirgi kungacha dolzarb va muxim masalalardan xisoblanib keladi. Shu asnodan Dunyoning eng rivojlangan va eng ko'ringan davlatlarning biri Birlashgan Arab Amirligining (BAA) meros masalalari xam o'ziga

1

[https://www.consultant.ru/edu/student/download\\_books/book/mejer\\_di\\_russkoe\\_grazhdanskoe\\_pra](https://www.consultant.ru/edu/student/download_books/book/mejer_di_russkoe_grazhdanskoe_pra)  
vo/

xos va mosdir. BAAda meros masalalari shariat qonunchiligi asosida ko'riladi. BAA dagi bir necha kodifikatsiya qilingan qonunlar shariatga asoslangan. BAAdagi fuqarolarning 80% dan ko'pi ekspatriant ya'ni o'zlarining tub axolisi emas. Shunga ko'ra BAAda axolining dini, e'tiqodi va kelib chiqishiga asosan meros qabul qilinishi asoslari ko'riladi. BAAda meros masalalari 1985 yilda qabul qilingan 5-sonli "Federal qonun" va "Shaxsiy status" to'g'risidagi Qonunlar tartibga soladi. Shariat masalalari islom yurisprudensiyasi bo'yicha ba'zida "Mirat" deyiladi yoki "al faraxid" deb yuritiladi. Merosxo'rlar odatda islomda uch toifaga bo'linadi:

1. Kvota (zavu al-farax) vorislari. Bu gurux odatda ulushlarni yoki mulk ulushini meros qilib oldai va foyda oluvchi turmush o'rtog'i, ota -onasi, o'g'li, qizi, aka-uka, bobo-buvi xisoblanadi. Ular odatda xech qachon chiqarib tashlanmaydi. Vaziyat va sharoitga qarab, boshqa merosxo'rlar istisno qilinishi mumkin.

2. Asaba a'zolari yoki qoldiqlari: bular merosxo'rlarning ulushlari kvotalarga muvofiq tegishli taqsimlangandan so'ng merosni qoldiq sifatida oladigan a'zolaridir.

3. Katta oila a'zolari (dxavu al arxam): odatda ona tomondan bobo, xolalar, jiyanlar va birinchi amakivachchalar, shuningdek xar qanday kvotasiz va Asaba merosxo'r oilasi. Merosni taqsimlash uchun sudlarning asosiy bosqichi merosxo'rlarni aniqlash va ikki erkak guvox orqali oilaviy aloqalarni aniqlash (tug'ilgnlik va nikox guvoxnomalari orqali) orqali belgilanadi. Noqonuniy va asrab olingan bolalar islom qonunlariga ko'ra merosxo'r xisoblanishi mumkin emas. Musulmon bo'lmaganlar musulmonning mulkidan foydalana olmaydi. Merosdan foyda olish maqsadida qotillik sodir etilgan shaxs meros olish xuquqiga ega emas. Shariat bo'yicha Meros olish tartibi quyidagicha amalga oshiriladi: ya'ni avval kvota merosxo'rlari o'zlarinign ulushlarini oladi, agar bo'lish uchun boshqa mulk qolmasa, jarayon tugallanadi, tugamagan bo'lsa ikkinchi bosqich xisoblanadi. Ikkinchi bosqichda qolgan merosxo'rlar mulkdan qolganini oladi, Qoldiq merosxo'rlar bo'lmasa, lekin mol mulk balans mavjud bo'lgan xollarda, pullar kvotaning merosxo'rlari o'rtasida teng ravishda qayta taqsimlanadi va bu qayta taqsimlanish "al-rad" deb ataladi. Keyingi bosqichda kvota yoki balans merosxo'rlari bo'lmagan taqdirda, mol mulk katta oila a'zolari o'rtasida taqsimlanadi. Muayyan sharoitlarda oyda oluvchilar muman bo'lmaganda mulk davlat g'aznasiga tushadi va "baytul-mol" deb ataladi. BAA qonunlariga muvofiq meros masalalari sudlar tomonidan ko'rib chiqiladi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 197- moddasiga asosan mulk xuquqining vujudga keluvchi asosiy omillaridan biri meros xuquqi xisoblanadi.<sup>2</sup>

Yuqoridagi Birlashgan arab amirligi (BAA) ning meros masalalarini ko'rib chiqish asosida O'zbekiston Respublikasida qonunchilikda meros olish xuquqiy masalasini ko'rib, taqqoslashimiz mumkin.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasining meros qonunchiligi gender tengligi asosida tuzilgan bo'lib, jinsiga qaramay Fuqarolik Kodeksining 1135-1140 moddalariga asosan meros mulki navbat asosida taqsimlanadi va bu Konstitutsiyamizning 58- moddasida, ya'ni xotin-qizlar va erkaklar teng huquqligi va davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlanishi qat'iy belgilangan.<sup>3</sup>

Bu moddaga asosan O'zbekiston Respublikasining 1135- moddasiga asosan farzandlari (shu jumladan farzandlikka olingan bolalari), eri (xotini) va ota-onasi (farzandlikka oluvchilar) teng ulushlarda meros qoldiruvchining 1 navbatdagi merosxo'rlar qatoriga kiradi. Yana shuni ta'kidlash lozimki, bizning qonunchiligimizda er yoki xotinning mulki xadya yoki meros tariqasida olingan mulkdan tashqari barcha nikox davomida olingan mulklar umumiy mulk xisoblanib O'zbekiston Respublikasining 1114 -moddasiga asosan umumiy birgalikdagi mulkbo'lgan mol-mulkni meros qilib olish qat'iy belgilangan. 1136- moddasiga asosan

<sup>2</sup> <https://makefortune.ae/novosti/sostavlenie-zaveshhaniya-na-nasledstvo-v-oae>

<sup>3</sup> <https://constitution.uz/ru>

meros qoldiruvchining tug'ishgan hamda ona (ota) bir ota (ona) boshqa aka-ukalari va opa-singillari, shuningdek uning ham ota, ham ona tarafdin bobosi va buvisi teng ulushlarda qonun bo'yicha ikkinchi navbatdagi vorislik huquqiga ega bo'ladilar. 1 va 2 navbatdagi merosxo'rlar mavjud bo'lmaganda yoki ular voz kechishganda keyingi navbatdagi merosxo'rlar meros olish xuquqiga ega bo'ladi. Jumladan, Meros qoldiruvchining tug'ishgan amakisi, tog'asi, ammasi va xolasi yoki taqdim qilish (onun bo'yicha merosxo'r meros ochilgunga qadar vafot etgan taqdirda, unga tegishli ulush uning avlodlariga o'tishini nazarda tutadi, bunda ulush taqdim qilinayotgan qonun bo'yicha merosxo'r bilan bir xil darajada qarindosh bo'lgan avlodlar o'rtasida teng taqsimlanadi.<sup>4</sup>

Yuqoridagi taxlil qilingan BAA va O'zimizning qonunchilikda taxlil qilinganda O'zbekiston Respublikasining meros qonunchiligidagi ijobiy va salbiy taraflarni ko'rishimiz mumkin. Jumladan, gender tengligi Konstitutsiya va Qonunchilik bilan mustaxkamlanganligi, ayolning meros olish xuquqi qat'iyligi, Ota - ona yoki bobo va buvining xam meros olish xuquqi moddalarda mustaxkamlanganligi, meros olish muddati cheklanmaganligi, ya'ni meros qabul qilish muddati belgilanmaganligi ijobiy deb olsak, merosxo'rlar doirasining cheklanmaganligi va meros qabul qilish, uni yuritish, voz kechish, xamda bir necha Qonunlarda bir biriga zid kolliziyalar mavjudligi, qat'iy MEROS va Merosxo'rlar to'g'risidagi Qonun mavjud emasligi salbiy taraflar deb xisoblayman.



---

<sup>4</sup> lex.uz.